O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TEMIR BETON YO‘L PLITALARI

Texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2. O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan 2025-yil 8 - sentabrdagi 106/MSt -sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3. O‘z DSt 3411:2019 **O‘RNIGA ISHLAB CHIQILDI.**

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Tasniflash	3
4	Texnik talablar	4
5	Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari	10
6	Qabul qilish qoidalari	11
7	Nazorat qilish usullari	13
8	Transportda tashish va saqlash	14
9	Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar	14
10	Ishlab chiqaruvchining kafolati	15
A ilova (normativ) Plitalarni yoriqqa chidamlilikka sinash sxemalari		16
B ilova (ma’lumot uchun)		18
Bibliografiya		19
Bibliografik ma’lumotlar		20

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TEMIR BETON YO‘L PLITALARI
Texnikaviy shartlar

ПЛИТЫ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ ДОРОЖНЫЕ
Технические условия

REINFORCED CONCRETE ROAD SLABS
Specifications

Amalga kiritish sanasi 8.10.2025 yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu milliy standart temirbeton yo‘l plitalariga (keyingi o‘rinlarda plitalar deb yuritiladi) tatbiq etiladi va plitalarga qo‘yiladigan texnik talablarni, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini, nazorat qilish usullarini, qabul qilish, tashish va saqlash qoidalarini, foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalarni belgilaydi.

Plitalar murakkab muhandislik-geologik, iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan hududlarda yoki [1] ga muvofiq baland tepaliklarda avtomobil yo‘llarining yig‘ma qoplamalarini qurish uchun mo‘ljallangan.

Plitalar [2] bo‘yicha eng sovuq besh kunlik tashqi havoning hisoblangan qishki harorati minus 30 °C gacha bo‘lgan hududlarda qo‘llanilishi kerak.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

ГОСТ 12.0.004-2015 Система стандартов безопасности труда. Организация обучения безопасности труда. Общие положения

ГОСТ 12.1.005-88 Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны

ГОСТ 12.1.019-2017 Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Общие требования и номенклатура видов защиты

ГОСТ 12.1.030-81 Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Защитное заземление, зануление

ГОСТ 12.2.003-91 Система стандартов безопасности труда. Оборудование производственное. Общие требования безопасности

ГОСТ 12.3.009-76 Система стандартов безопасности труда. Работы погрузочно-разгрузочные. Общие требования безопасности

ГОСТ Р 12.3.047 Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля

ГОСТ 12.4.021-75 Система стандартов безопасности труда. Системы вентиляционные. Общие требования

ГОСТ 17.2.3.02-2014 Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ промышленными предприятиями

ГОСТ 17.4.3.05-86 Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадкам для орошения и удобрения

ГОСТ 162-90 Штангенглубиномеры. Технические условия

ГОСТ 166-89 Штангенциркули. Технические условия

ГОСТ 310.1-76 Цементы. Методы испытаний. Общие положения

ГОСТ 310.2-76 Цементы. Методы определения тонкости помола

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 310.3-76 Цементы. Методы определения нормальной густоты, сроков схватывания и равномерности изменения объема

ГОСТ 310.4-81 Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии

ГОСТ 427-75 Линейки измерительные металлические. Технические условия

ГОСТ 3282-74 Проволока стальная низкоуглеродистая общего назначения. Технические условия

ГОСТ 6727-80 Проволока из низкоуглеродистой стали холоднотянутая для армирования железобетонных конструкций. Технические условия

ГОСТ 7502-98 Рулетки измерительные металлические. Технические условия

ГОСТ 8267-93 Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия

ГОСТ 8269.0-97 Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ. Методы физико-механических испытаний

ГОСТ 8568-77 Листы стальные с ромбическим и чечевичным рифлением. Технические условия

ГОСТ 8735-88 Песок для строительных работ. Методы испытаний

ГОСТ 8736-2014 Песок для строительных работ. Технические условия

ГОСТ 8829-2018 Изделия строительные железобетонные и бетонные заводского изготовления. Методы испытаний нагружением. Правила оценки прочности, жесткости и трещиностойкости

ГОСТ 10060-2012 Бетоны. Методы определения морозостойкости

ГОСТ 10180-2012 Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам

ГОСТ 10922-2012 Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязаные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия

ГОСТ 12730.1-2020 Бетоны. Методы определения плотности

ГОСТ 12730.3-2020 Бетоны. Метод определения водопоглощения

ГОСТ 12730.5-2018 Бетоны. Методы определения водонепроницаемости

ГОСТ 13015-2012 Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения

ГОСТ 13087-2018 Бетоны. Методы определения истираемости

ГОСТ 14098-2014 Соединения сварные арматуры и закладных изделий железобетонных конструкций. Типы, конструкции и размеры

ГОСТ 14192-96 Маркировка грузов

ГОСТ 17624-2021 Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности

ГОСТ 18105-2018 Бетоны. Правила контроля и оценки прочности

ГОСТ 22266-2013 Цементы сульфатостойкие. Технические условия

ГОСТ 22362-77 Конструкции железобетонные. Методы измерения силы натяжения арматуры

ГОСТ 23732-2011 Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия

ГОСТ 24211-2008 Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия

ГОСТ 24297-2013 Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля

ГОСТ 26433.1-89 Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления

ГОСТ 26633-2015 Бетоны тяжелые и мелкозернистые. Технические условия

ГОСТ 30108-94 Материалы и изделия строительные. Определение удельной эффективной активности естественных радионуклидов

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 30459-2008 Добавки для бетонов строительных растворов. Определение и оценки эффективности.

ГОСТ 31108-2020 Портландцемент и шлакопортландцемент. Технические условия

ГОСТ 31424-2010 Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия

ГОСТ 34028-2016 Сталь арматурная термомеханически упроченная для железобетонных конструкций. Технические условия

O’z DSt 12.0.001:2005 Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilish sanoat sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi

O‘z DSt 838:2023 Temir-beton mahsulotlar yasash uchun po‘lat qoliplar. Texnikaviy shartlar

O‘z DSt 3025:2015 Tekis va davriy profildagi armaturali prokat texnikaviy shartlar

Izoh - Ushbu standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agar havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.

3 Tasniflash

3.1 Plitalarni ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

ZYP (ПНД)mu - plitalarni ishlab chiqarish qattiq bo‘ylama bortli (bo‘ylama qirralarining texnologik nishabligi bilan) matritsa shaklidagi ishchi yuza bilan pastga tomon amalga oshiriladi;

ZYP (ПНД)-u plitalarni ishlab chiqarish bo‘ylama bortlari (bo‘ylama qirralarining texnologik nishabligisiz) shaklli tepaga yo‘naltirilgan ishchi yuza bilan amalga oshiriladi;

ZYP (ПНД)-6.2.14-16 A400 plitalarni ishlab chiqarishda 16 A400 zo‘riqtirilgan armatura;

OAP (ПДО) m - plitalarni ishlab chiqarishda ishchi yuza bilan pastga qarab qattiq bo‘ylama bortli (bo‘ylama qirralarining texnologik nishabligi bilan) matritsali shakllarda amalga oshiriladi.

3.2 Plitalar markasi harf-raqamli guruhlardan iborat:

ZYP (ПНД)- zo‘riqtirilgan yo‘l plitasi

OAYP (ПДО) - oddiy armaturali yo‘l plitasi

m - plita matritsa shaklida yuzasi pastga qaratib tayyorlangan;

u - takomillashtirilgan armaturalash sxemasi;

6 - plitaning uzunligi metrlarda;

2 (0,75) - plitaning eni metrlarda;

14 - plitaning qalinligi santimetrlarda;

1 (2) - plitani zo‘riqtirilmaydigan armatura bilan armaturalash varianti;

C - sulfatga chidamli sement (buyurtma bo‘yicha).

Boshqa hujjatlarda va buyurtma berilganda plitalarni yozishga misollar:

ZYP (ПНД)mu 6.2.14-1-C O‘zMSt___:2025

takomillashtirilgan armaturalash sxemasiga ega bo‘lgan oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton yo‘l plitasi, uzunligi 6 m, kengligi 2 m, qalinligi 14 cm, zo‘riqtirilmaydigan armaturani armaturalash varianti 1, O‘zMSt ____:2025 bo‘yicha sulfatga chidamli sementdan tayyorlangan;

OAYP (ПДО)m 6.2.14 O‘zMSt ____:2025

oddiy armaturali yo‘l plitasi, uzunligi 6 m, eni 2 m, qalinligi 14 cm, O‘zMSt ____:2025 bo‘yicha portlandsementda tayyorlangan;

STANDARTLAR INSTITUTI#601B47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ZYP (ПНД) 6.2.14-16 A400 O‘zMSt ____:2025

zo‘riqtirilgan yo‘l plitasi - uzunligi 6 m, kengligi 2 m, qalinligi 14 cm, zo‘riqtiriladigan armatura Ø16 A400 O‘zMSt___:2025 bo‘yicha tayyorlangan.

4 Texnik talablar

4.1 Yo‘l beton plitalari ushbu standart, ГОСТ 13015 talablariga javob berishi va belgilangan tartibda tasdiqlangan konstruktorlik va texnologik hujjatlar bo‘yicha tayyorlanishi kerak.

Konstruktorlik hujjatlari bo‘yicha ma’lumotlar ushbu standartning B ilovasida keltirilgan.

4.2 Asosiy parametrlari va o‘lchamlari


4.2.1 Plitaning umumiy turi va asosiy o‘lchamlari (uzunligi, eni va balandligi) 1, 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.

4.2.2 Plitaning markasi va nomi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval Plitaning markasi va nomi


Markasi	Nomi	Plitaning vazifasi
ZYP (ПНД)mu 6.2.14-1 ZYP (ПНД)mu 6.2.14-2 ZYP (ПНД)u 6.2.14-1 ZYP (ПНД)u 6.2.14-2	Takomillashtirilgan armaturalash sxemasi bilan oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton yo‘l plitasi	Avtomobil yo‘llarining yig‘ma qoplamalari uchun
ZYP (ПНД) 6.2.14-16 A400	Oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton yo‘l plitasi, zo‘riqtirilgan armatura Ø16 A400	
OAYP (ПДО)6.2.14	Oddiy armaturalangan temir-beton yo‘l plitasi	
OAYP (ПДО)6.0,75.14		Avtomobil yo‘llari chetlarini mustahkamlash uchun

Plitaning umumiy turi




1-rasm.
-ZYP (ПНД)u 6.2.14-1,
-ZYP (ПНД)u 6.2.14-2 plitalar

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ



2-rasm.
-ZYP (ПНД)mu 6.2.14-1,
-ZYP (ПНД)mu 6.2.14-2,
OAYP (ПДО)m 6.2.14,
-ZYP (ПНД)6.2.14-16 A400 plitalar



3-rasm.
OAYP(ПДО)m 6.0,75.14 plitalar

4.2.4 Plitalarning ishchi yuzasi g‘adir-budur bo‘lishi zarur. G‘adir-budurlikni quyidagicha ta’minlash lozim:

a) ГОСТ 8568 bo‘yicha rombik taramli (рифле) po‘latdan taglik bilan O‘z DSt 838 bo‘yicha po‘lat qoliplarda pastga qarab ishchi yuzali plitalar tayyorlash;

b) betonlashdan keyin plitaning ishchi yuzasiga kapron cho‘tka yoki brezent tasma bilan ishlov berib yuzasi yuqoriga qaratilgan plitalarni tayyorlash.

4.2.5 Plitalar ushbu standartning A ilovasida keltirilgan sxemalar bo‘yicha yoriqlarga chidamliligini sinashda nazorat yuklamalariga bardosh berishi kerak.

4.2.6 Betonning himoya qatlamining o‘lchami loyiha hujjatlarida ko‘rsatiladi va kamida 20 mm bo‘lishi lozim.

4.2.7 Plitalarning asosiy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

2-jadval Plitalarning asosiy ko‘rsatkichlari

Plitalarning markalari	Armatura		Plitadagi beton hajmi, m^3	Massa, t
	Zo‘riqtiriladigan	Zo‘riqtirilmaydigan		
- ZYP(ПНД)mu 6.2.14-1 - ZYP(ПНД)u 6.2.14-1	Ат 500	A240 A400	1,68	4,20
-ZYP(ПНД)mu 6.2.14-2 -ZYP(ПНД)u 6.2.14-2		Bp I, A400		
- ZYP(ПНД) 6.2.14-16 A400в	Ø16 A400	Bp I, A400		
- OAYP (ПДО)m 6.2.14	–	A240, A400		
- OAYP (ПДО)m 6.0,75.14	–	A240, A400	0,63	1,575

4.2.8 Ishchi yuza bilan pastga qilib tayyorlangan plitalar ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan ishchi holatga qayta kantlangan bo‘lishi kerak.

4.3 Betonga qo‘yilgan talablar

4.3.1 Plitalar ГОСТ 26633 bo‘yicha og‘ir betondan tayyorlanishi kerak. Betonning zichligi D 2300 kg/m^3 dan D 2500 kg/m^3 gacha bo‘lishi kerak.

4.3.2 Betonning siqilishga mustahkamligi bo‘yicha sinfi B30 (392,9 kg/cm^2) [1)].

4.3.3 Betonning egilishdagi cho‘zilishga mustahkamligi bo‘yicha sinfi B_{tb} 3,6 (47,2 kg/cm^2) [2)].

4.3.4 Betonning sovuqqa chidamliligi bo‘yicha markasi foydalanish hududining aniq iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda plitalarga buyurtmada ko‘rsatilishi kerak.

Plitalar buyurtmasida sovuqqa chidamlilik bo‘yicha ko‘rsatkichlar bo‘lmaganda, sovuqqa chidamlilik bo‘yicha markani F 200 deb qabul qilish kerak.

4.3.5 Betonning suv o‘tkazmaslik bo‘yicha markasi foydalanish hududining aniq iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda plitalarga buyurtmada ko‘rsatilishi kerak.

Plitalarga buyurtmada suv o‘tkazmaslik bo‘yicha ko‘rsatkichlar bo‘lmasa, suv o‘tkazmaslik bo‘yicha markani W6 deb qabul qilish lozim.

4.3.6 Betonning ishqalanish bo‘yicha markasi G 1- (0,7 g/cm^2 dan ko‘p emas).

4.3.7 Betonning suv shimuvchanligi 5% gacha bo‘lishi kerak.

4.3.8 Beton plitalarining me’yorlangan uzatish mustahkamligining qiymati siqilishdagi loyihaviy mustahkamlikning 70 % bo‘lishi kerak.

4.3.9 Beton plitalarining me’yorlangan bo‘shatish mustahkamligi qiymati loyihadagi siqilishga bo‘lgan mustahkamlikka nisbatan foizlarda qabul qilinishi kerak, kamida:

- yilning iliq davrida 70 %;
- yilning sovuq davrida 90 %;
- betonning 28 kunlik yoshida loyihaviy mustahkamlikka erishishi sharti bilan.

Yilning sovuq davri sifatida [1] ga muvofiq tashqi havoning o‘rtacha oylik harorati 0 °C va undan past bo‘lgan davrni yilning qolgan barcha vaqtlarini iliq davr deb qabul qilish kerak.

4.3.10 Beton aralashmasiga qotishni tezlashtiruvchilar sifatida, $NaCI_2$, $CaCI_2$ xlorli tuzlarni qo‘shishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.4 Xom ashyo va materiallarga qo‘yiladigan talablar

4.4.1 Plitalarni ishlab chiqarish uchun quyidagi xom-ashyolardan foydalanish kerak:

- ГОСТ 31108 bo‘yicha 42,5H, 52,5H sinfli SEM (ЦЕМ) 0, SEM (ЦЕМ) I, SEM (ЦЕМ) II/A-Ш turdagi portlandsement, siqilishga mustahkamligi 50 MPa, [3] talablariga muvofiq betonning B30 sinfiga mos keladi;
- ГОСТ 22266 bo‘yicha 42,5 H, 52,5H sinfidagi SEM (ЦЕМ) I CC, SEM (ЦЕМ) II/ A-Ш CC turidagi sulfatga chidamli portlandsement, siqilishdagi mustahkamligi 50 MPa, [3] talablarga muvofiq betonning B30 sinfiga mos keladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Sulfatga chidamli sementni qo‘llash zarurati [4] ga muvofiq plitalarni ishlatish hududida sulfat agressiyasi mavjud bo‘lganda plitalarga buyurtmada ko‘rsatilishi kerak.

- ГОСТ 8267 bo‘yicha qurilish ishlari uchun zich tog‘ jinslaridan olingan shag‘al, yirik to‘ldiruvchi donalarining o‘lchami 20 mm dan oshmasligi kerak;

- ГОСТ 8736 bo‘yicha qurilish ishlari uchun qum, ГОСТ 31424 bo‘yicha shag‘al ishlab chiqarishda zich tog‘ jinslarini maydalash cho‘kmalaridan olingan qum, ГОСТ 8736 (tabiiy) bo‘yicha qum aralashmasi va ГОСТ 31424 (maydalangan) bo‘yicha qum. Qum aralashmasi ГОСТ 8736 talablariga javob berishi kerak;

- zo‘riqtirilgan armatura sifatida cho‘zilish bilan mustahkamlangan O‘z DSt 3025 bo‘yicha A500 sinfidagi, cbo‘yicha A500, Ат500 sinfidagi, O‘z DSt 3025 bo‘yicha A400 sinfidagi davriy profilli armatura prokati;

- 35 ГС, 25 Г2С markali, O‘z DSt 3025, ГОСТ 34028 bo‘yicha A400 sinfiga mansub davriy profilli sovuq tortilgan simning Bp1 sinfiga mansub prokat armaturasi;

- taranglashmaydigan armatura, montaj-uzilmali buyumlar, stropovkali halqalar uchun O‘z DSt 3025, ГОСТ 34028 bo‘yicha Ст 3пс, Ст 3пс markali A240 sinf silliq profilli armatura prokatlari.

4.4.2 Beton qorishmasini tayyorlash uchun to‘ldiruvchilar va bog‘lovchi materiallar ГОСТ 26633 ga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.4.3 Beton qorishmasini tayyorlash uchun ГОСТ 23732 bo‘yicha betonlar va qurilish qorishmalari uchun suvdan foydalanish kerak.

4.4.4 Beton uchun plastifikatsiyalovchi, havo tortuvchi va kompleks qo‘shimchalar ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

Beton qorishmasiga kiritiladigan qo‘shimchalarning turlari va hajmi qo‘shimchalar uchun me’yoriy hujjatlar talablariga javob berishi kerak.

Turli xil kimyoviy qo‘shimchalarning umumiy miqdori (havo tortuvchi, plastifikatsiyalovchi, betonning mustahkamligini oshiruvchi qotishni tezlashtiruvchi) beton qorishmasiga kiritilganda sement massasining 5% dan oshmasligi kerak.

Qo‘shimchalarni qo‘llashdan oldin ularning samaradorligi ГОСТ 30459 ga muvofiq qo‘llaniladigan materiallarning turi va sifatiga hamda ishlab chiqaruvchi zavodda qabul qilingan beton aralashmasini tayyorlash texnologiyasiga qarab aniqlanishi lozim.

4.4.5 4% dan 6% gacha bo‘lgan oraliqda havo tortuvchi qo‘shimchalar qo‘llanilganda zichlangan beton qorishmasidagi jalb qilingan havo hajmi.

4.4.6 Sement, shag‘al, qum, armatura prokati plitalarni tayyorlashdan oldin ГОСТ 24297 bo‘yicha verifikatsiyadan (kirish nazorati) o‘tishi kerak.

4.4.7 Ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan tabiiy radionuklidlarining (A_{sam}) o‘ziga xos samarali faolligi to‘ldiruvchilar va bog‘lovchilarning solishtirma samarali faolligi qiymati ГОСТ 30108 va [5] ga mos kelishi kerak:

- aholi punktlari va istiqbolli qurilish hududlari doirasida qurilish uchun 370 dan 740 Bq/kg gacha;

- aholi punktlaridan tashqarida 740 dan 1500 Bq/kg gacha.

4.4.8 Armatura prokatining gamma nurlanishining ekvivalent dozasi maksimal quvvati [6] da ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

4.5 Armatura va montaj-ulash buyumlarga qo‘yiladigan talablar

4.5.1 Armatura buyumlari va montaj-ulash skobalarining konstruksiyasi, ularning plitalardagi holati loyiha hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI 760B47UME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.5.2 Kuchlanadigan armatura tutashmalarsiz yaxlit sterjenlardan iborat bo‘lishi kerak.

4.5.3 Armatura to‘rlari va karkaslar ГОСТ 14098 bo‘yicha nuqtali kontaktli payvandlab tayyorlanishi kerak.

Plitalarning fazoviy karkasini payvandlangan to‘rlar va karkaslardan OAYP (ПДО)m bilan yig‘ish ГОСТ 3282 bo‘yicha yopishqoq to‘quv simi bilan amalga oshirilishi kerak.

4.5.4 Kuchlanishli sterjenlarda dastlabki kuchlanishni elektrotermik usulda amalga oshirish kerak. Elektr bilan isitish harorati loyiha hujjatlarida ko‘rsatilishi kerak.

4.5.5 Zo‘riqadigan armaturani qolip tayanchlariga mahkamlash uchun o‘tqazilgan kallak, zichlangan shayba va boshqa turdagi vaqtinchalik oxirgi mahkamlagichdan foydalanish kerak.

4.5.6 Kuchlanishli sterjenlardagi nazorat qilinadigan kuchlanish kattaligining qiymati konstruksiyaviy hujjatlarida ko‘rsatilishi kerak.

4.5.7 Zo‘riqtirilgan sterjenlarda dastlabki kuchlanishning yo‘l qo‘yiladigan chetlanish qiymati minus 5% dan plyus 10% gacha bo‘lishi kerak.

4.5.8 Armatura buyumlari va montaj-ulash skobalari ГОСТ 10922 talablariga javob berishi kerak.

4.6 Ishlab chiqarish aniqligiga qo‘yiladigan talablar

4.6.1 Plitalar geometrik parametrlarining haqiqiy og‘ish qiymatlari 3-jadvalda ko‘rsatilgan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi kerak.

3-jadval. Plitalar geometrik parametrlarining haqiqiy og‘ish qiymatlari millimetrlarda

Geometrik parametrdan og‘ish turi	Geometrik parametr	Chegaraviy og‘ish qiymati
Chiziqli o‘lchamdan og‘ish	Uzunligi	± 6
	Eni	± 5
	Qalinligi	± 4
	Montaj-tutashtiruvchi qavslarning joylashuvi: - rejada - vertikal bo‘yicha - plitaning chetidan chiqishi	 ± 3 ± 3 ± 3
	“Tayanch joyi” montaj belgisining holati	± 20
	Betonning himoya qatlamining qalinligi	± 3
Profil shaklining og‘ishi	yon qirralar profilining to‘g‘ri chiziqligi: - butun uzunligiga - butun eniga - 1 m uzunlikdagi istalgan kesimda	 6 4 2
	Ishchi yuzaning tekisligi	6
Diagonallar uzunliklarining tengligidan og‘ishi	Diagonallar uzunliklari farqi	10
Perpendikulyarlikdan og‘ish	Yon tomon qirralarining, bo‘ylama qirralarining perpendikulyarligi (ZYP(ПНД)u turidagi plitalar uchun)	± 5
Zo‘riqtirilgan armatura sterjenlari orasidagi masofadagi og‘ish	Zo‘riqtirilgan armatura sterjenlari orasidagi masofadagi og‘ish: - vertikal bo‘yicha - gorizontal bo‘yicha	 ± 3 ± 3
Zo‘riqadigan armaturaning o‘qdan og‘ishi	Zo‘riqtirilgan armatura sterjenining teng o‘qliligi	± 3

4.7 Yuzalarning sifati va tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar

4.7.1 Nuqsonlar (bo‘shliq), suv toshqinlari, chuqurchalar, chetlarning yo‘l qo‘yilgan o‘lchamlari 4-jadvalda ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4-jadval. Plitalar beton yuzasining tavsiflari millimetrda

Yuza	Yo‘l qo‘yiladigan o‘lchamlar				
	Bo‘shliq		Mahalliy oqimlar (balandlik) va cho‘kmalar (chuqurlik)	Beton hoshiyalari	
	Diametr	Chuqurligi		Chuqurligi	1 metr qirra uchun jami uzunlik
Yuzaki (ishchi)	6	3	3	5	50
Yuzaki bo‘lmagan	15	5	5	10	100

4.7.2 Plitalarning ishchi yuzasida yoriqlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yon yoqlarda, plitalarning pastki yuzasida eni 0,1 mm dan ko‘p bo‘lmagan, uzunligi 50 mm dan ko‘p bo‘lmagan, 1,5 m^2 yuzada 5 tadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kirishish yoriqlariga yo‘l qo‘yiladi.

4.7.3 Plitalarda armaturani ochishga yo‘l qo‘yilmaydi, taranglashtiriladigan armatura uchlaridan tashqari -ZYP(ПНД)u 6.2.14, -ZYP(ПНД)u 6.2.14, -ZYP(ПНД)u 6.2.14-16 A400 plitalari uchun.

Zo‘riqtirilgan armaturaning uchlari beton yuzasidan plitalarning ko‘ndalang yuzalaridan 3 mm dan ortiq chiqmasligi kerak.

4.7.4 Plitalarning yon qirralari yaqinida betonning 4 mm dan ortiq qalinlashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.7.5 Plitalarning old yuzasida betonning po‘st tashlashiga, yog‘li va zangli dog‘larga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.7.6 Montaj-ulash tutashtiruvchi skobalar beton oqimlaridan tozalangan bo‘lishi kerak.

4.7.7 Quyidagilar taqiqlanadi:

- plitaning yuzasini butun uzunligi bo‘ylab yoki alohida joylarga sement qorishmasini qo‘yib tekislash;

- yuzani pardozlash uchun suv ishlatish;

- tayyor plitalardagi nuqsonlarni tuzatish (yoriqlarni artish, nuqsonlar (bo‘shliq)ni bekitish);

- yangi yotqizilgan ZYP(ПНД)u tipidagi plitalar yuzasiga cho‘tka yoki brezent lenta bilan ishlov berish.

4.8 Tamg‘alash

4.8.1 Plitalarning tamg‘asi mazkur milliy standarti va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

4.8.2 Plitaga quyidagi tamg‘alash yozuvlari tushirilgan bo‘lishi kerak:

plita markasi;

ishlab chiqaruvchi korxonaning qisqa nomi va uning tovar belgisi (mavjud bo‘lsa);

texnik nazorat shtampi;

ishlab chiqarish sanasi (kun, oy, yil);

plita massasining qiymati, t;

“tiralish joyi” montaj qilish belgisi.

4.8.3 Tamg‘alash yozuvlari va “tiralish joyi” belgisi quyidagicha tushiriladi:

trafaret bo‘yicha bo‘yash;

shtamp yordamida bo‘yash;

tamg‘alash mashinasi yordamida;

plitalarni shtamplab shakllantirish.

Tamg‘alash yozuvlarini bo‘yoq bilan qo‘lda yoki maxsus qalam bilan plitalarning issiqlik bilan ishlov berishdan keyin sovutilmagan yuzasi bo‘yab tushirishga yo‘l qo‘yiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI “KOBARYAME” 01.10.2025 “TURON STANDART SERTIFIKAT MGK”

4.8.4 Transport tamg‘alashni ГОСТ 14192 bo‘yicha bajarish lozim (zarur bo‘lganda).

5 Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari

5.1 Plitalar zaharli emas, yong‘in-portlash jihatidan xavfsiz, tayyorlash, saqlash va tashishda xavf tug‘dirmaydi.

5.2 Odamlar hayoti va salomatligi xavfsizligini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun plitalar ushbu standart talablariga javob berishi kerak.

5.3 Plitalar ishlab chiqarishda ishlovchilar belgilangan tartibda ishga kirishda dastlabki tibbiy ko‘rikdan va davriy tibbiy ko‘rikdan, shuningdek, xavfsizlik texnikasi bo‘yicha yo‘riqnomadan va ish joyida ГОСТ 12.0.004 va O‘z DSt 12.0.001 ga muvofiq o‘qitishdan o‘tishlari kerak.

5.4 Plita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

5.5 Plitalarni ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi ГОСТ 12.1.019, ГОСТ 12.1.030. ga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.6 Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin va tebranish darajalari tegishli ravishda [7] belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

5.7 Ish joylarida mahalliy va umumiy tebranishning ruxsat etilgan darajalari [8] da belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

5.8 Yuk ortish-tushirish ishlarida ГОСТ 12.3.009 va [9] bo‘yicha xavfsizlik talablariga rioya qilish kerak.

5.9 Ishlab chiqarish uskunalari ГОСТ 12.2.003 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.10 Barcha ishlab chiqarish uchastkalari ГОСТ Р 12.3.047 ga mos keladigan yong‘inni o‘chirish vositalari bilan ta’minlanishi kerak.

5.11 Ishlab chiqarish binolarining mikroiqlimi [10] talablariga javob berishi kerak.

5.12 Yopiq ishlab chiqarish xonalari ГОСТ 12.1.005 va ГОСТ 12.4.021 ga muvofiq, kirish-chiqish ventilyatsiyasi [11] ga muvofiq isitish va konditsioner bilan ta’minlanishi kerak.

5.13 Ishlab chiqaruvchi korxonaning ma’muriy va maishiy binolari [12] talablariga javob berishi kerak.

5.14 Plitalarni ishlab chiqarish jarayonida ГОСТ 17.2.3.02 bo‘yicha atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish kerak.

5.15 ГОСТ 17.4.3.05 bo‘yicha oqava suvlarga qo‘yiladigan talablar.

5.16 Plita ishlab chiqarish chiqindilari ekologik jihatdan xavfsiz bo‘lib, [13] ga muvofiq utilizatsiya qilinishi kerak yoki “Ikkilamchi moddiy resurslar” sifatida ishlatilishi mumkin.

6 Qabul qilish qoidalari

6.1 Plitalar ishlab chiqaruvchi korxonaning texnik nazorat bo‘limi tomonidan ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq qabul qilinishi kerak

6.2 Plitalarni qabul qilish to‘p tomonidan amalga oshirilishi kerak. To‘p hajmi 100 ta plitagacha qabul qilinishi kerak. To‘p tarkibiga bir sutkada bir xil turdagi va bir xil sifatli materiallardan bir xil texnologiya bo‘yicha tayyorlangan bir xil markali plitalar kiritilishi kerak.

6.3 Kichik miqdordagi plitalarni tayyorlashda, ushbu standartning 6.2-bandi talablari bajarilishini ta’minlagan holda, bir necha sutka davomida, lekin bir haftadan ko‘p bo‘lmagan vaqt ichida tayyorlangan plitalarni to‘p tarkibiga kiritish kerak.

6.4 Plitalarni qabul qilish quyidagi natijalar asosida amalga oshirilishi kerak:

- xomashyo va materiallarni tekshirish (kirish nazorati);
- plitalar ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan operatsion nazorat;
- armatura buyumlari va tutashish-montaj buyumlarini qabul qilish nazorati;

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

- beton plitalarni davriy sinovdan o‘tkazish;
- beton plitalarni qabul qilish-topshirish sinovlari;
- tayyor plitalarni qabul qilish-topshirish sinovlari.

6.5 Xom ashyo va materiallarni tekshirish (kirish nazorati) ГОСТ 24297 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

6.6 Plitalar ishlab chiqarishda operatsion nazoratni o‘tkazish hajmi va tartibi ishlab chiqaruvchi korxonaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjatlari bilan belgilanishi kerak.

6.7 Armatura va montaj-ulash buyumlari to‘plamini qabul qilish nazorati quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha to‘plamdan kamida uchta buyumda o‘tkazilishi kerak:

- taranglashayotgan armaturada kuchlanish kattaligini nazorat qilish;
- payvandlangan armatura va montaj-ulanish buyumlari birikmalarining mustahkamligi;
- fazoviy sinchning to‘qilish sifati;
- shakli va o‘lchamlarining mosligi.

6.8 Beton plitalarning davriy sinovlari plitalarni ko‘plab ishlab chiqarishni boshlashdan oldin, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritilganda, tayyorlash texnologiyasi o‘zgarganda, qo‘llaniladigan materiallarning turi va sifati o‘zgarganda, seriyali ishlab chiqarishda kamida 6 oyda bir marta quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim:

- zichligi;
- siqishga mustahkamligi;
- egilishdagi cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamlik;
- sovuqqa chidamliligi;
- suv shimuvchanligi;
- suv o‘tkazmasligi;
- ishqalanish.

6.9 Beton plitalarni qabul qilish-topshirish sinovlari:

- Betonning siqilishga mustahkamligi har bir beton to‘pidan namuna-kublar bo‘yicha o‘tkazilishi kerak;
- betonning siqilishga bo‘lgan loyihaviy mustahkamligi har bir beton to‘pidan olingan namunalar - kublar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim;
- betonning bo‘shatish mustahkamligi, ГОСТ 13015 bo‘yicha bir bosqichli tanlov nazorati usuli bilan o‘tkazilishi kerak, plita to‘pining hajmiga qarab namuna hajmi.

6.10 Tayyor plitalarni qabul qilish-topshirish sinovlari:

- geometrik parametrlari va shaklining aniqligi;
- beton yuzalarining sifati va tashqi ko‘rinishi;
- beton himoya qatlamining qalinligi va armaturaning joylashuvi;
- kirishish yoriqlarining ochilish kengligi ГОСТ 13015 bo‘yicha bir bosqichli tanlab nazorat qilish usuli bilan amalga oshirilishi kerak, namuna hajmi plitalar to‘pining hajmiga bog‘liq.

6.11 Tayyor plitalarni quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha qabul qilish-topshirish sinovlari:

- o‘rnatish-ulash buyumlari va stropovka halqalarining mavjudligi va holati;
- armaturaning ochilmasligi;
- ishchi yuzada yog‘li va zangli dog‘lar bo‘lmasligi;
- tamg‘alash yozuvlarining mavjudligi va to‘g‘ri keltirilganligi ko‘z bilan tekshirish usuli orqali aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #601B47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

6.12 Plitalarni yoriqqa chidamlilikka sinash ularni ommaviy tayyorlashni boshlashdan oldin, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritilganda, tayyorlash texnologiyasi o‘zgarganda, shuningdek, qo‘llaniladigan materiallarning turi, sifati o‘zgarganda o‘tkazish lozim.

Sinov uchun ushbu standart talablariga to‘g‘ri keladigan bo‘shatish va loyihaviy mustahkamlik bosqichidagi to‘pdan ikkitadan plita tanlab olinishi kerak.

Plitalar ishlab chiqaruvchi korxonaning texnik nazorat xizmati tomonidan ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq qabul qilinishi kerak.

6.13 Har bir qabul qilingan plitalar to‘piga ГОСТ 13015 bo‘yicha “Sifat to‘g‘risidagi hujjat” ilova qilinishi kerak.

6.14 “Sifat to‘g‘risidagi hujjat”da quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- hujjatning raqami va berilgan sanasi;
- ushbu standartning belgilanishi;
- plitalarning nomi va markasi;
- konstruktorlik hujjatlari;
- betonning siqilishga mustahkamligi bo‘yicha sinfi;
- betonning egilishdagi cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha sinfi;
- uzatish mustahkamligi loyihaviy mustahkamlikka nisbatan 70%;
- yuborishdan oldin haqiqiy mustahkamligi, kgf/cm^2;
- betonning o‘rtacha zichligi, kg/m^3;
- betonning sovuqqa chidamliligi bo‘yicha markasi;
- betonning suv o‘tkazmasligi bo‘yicha markasi;
- plitalar tayyorlangan sana (kun, oy, yil);
- faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida sotiladigan plitalar uchun davlat tilidagi “O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARILGAN” yozuvi;
- plitalarni eksportga yetkazib berishda shartnomaga (kontraktga) muvofiq ingliz tilidagi “MADE IN UZBEKISTAN” yoki import qiluvchi mamlakat tilidagi yozuv.
- TNB shtampi yoki plitalar sifati uchun mas’ul shaxsning imzosi;
- to‘pdagi plitalar soni, dona;
- hujjatning raqami va berilgan sanasi

6.15 Plita tayyorlash buyurtmasida ko‘rsatilgan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lsa, “Sifat to‘g‘risida hujjat” da ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar berilishi kerak.

6.16 Plitalarni ushbu standartning barcha talablariga muvofiqligi bo‘yicha sertifikatlashtirish sinovlari akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida o‘tkazilishi lozim.

7 Nazorat usullari

7.1 Qo‘llaniladigan xom ashyo va materiallar sifatini tekshirish (kirish nazorati) quyidagi xollarda amalga oshirilishi kerak:

- portlandsement, sulfatga chidamli sement ГОСТ 310.1, ГОСТ 310.2, ГОСТ 310.3, ГОСТ 310.4 bo‘yicha;
- qattiq tog‘ jinslaridan olingan shag‘al ГОСТ 8269.0 bo‘yicha;
- qurilish ishlari uchun qum ГОСТ 8735, ГОСТ 31424 bo‘yicha;
- armatura prokati ГОСТ 34028, O‘z DSt 3025 bo‘yicha;
- sovuq tortilgan sim ГОСТ 6727 bo‘yicha.

7.2 Plitalar betonining siqilishdagi loyihaviy mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 18105 bo‘yicha, ГОСТ 10180 bo‘yicha ishchi tarkibning beton aralashmasidan tayyorlangan namunalar-kublar seriyasida o‘tkazilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

7.3 Beton plitalarining bo‘shatish mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 17624 bo‘yicha buzilmaydigan usul bilan, ГОСТ 22690 bo‘yicha mexanik ta’sirga ega asboblarida yoki ushbu standartning 7.2-bandiga muvofiq namuna-kublarda amalga oshirilishi kerak.

7.4 Beton plitalarni davriy sinovdan o‘tkazish:

- ГОСТ 10180 bo‘yicha egilishdagi cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamlik;
- ГОСТ 10060 bo‘yicha sovuqqa chidamlilik;
- ГОСТ 12730.1 bo‘yicha zichligi;
- ГОСТ 12730.3 bo‘yicha suv shimuvchanligi;
- ГОСТ 12730.5 bo‘yicha suv o‘tkazmaslik;
- ГОСТ 13087 bo‘yicha ishqalanish.

7.5 Payvandlangan armatura va montaj-ulash buyumlarni nazorat qilish ГОСТ 10922 bo‘yicha amalga oshiriladi.

7.6 Plitalarning chiziqli o‘lchamlari, yuzalar profilining to‘g‘ri chiziqliligi, perpendikulyarligi, yuza yuzasining tekisligi, diagonallar uzunligining farqi, taranglanadigan armatura sterjenlarining holati, yuzalarning sifati va tashqi ko‘rinishi, montaj-ulash buyumlarning holati, armatura va montaj-ulash buyumlarning geometrik o‘lchamlarini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 bo‘yicha o‘lchovlarni bajarish qoidalari bo‘yicha quyidagi o‘lchov vositalari bilan amalga oshirilishi kerak: ГОСТ 427 bo‘yicha chizg‘ichlar, ГОСТ 7502 bo‘yicha ruletkalar, ГОСТ 166 bo‘yicha shtangensirkul, ГОСТ 162 bo‘yicha shtangenchuqurlik o‘lchagichlari.

7.7 Plitalar ishchi yuzasining notekisligini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 bo‘yicha amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq o‘lchagich bilan amalga oshiriladi.

7.8 Cho‘kuvchan yoriqlarning ochilish kengligini mikroskopda 0,05 mm aniqlikda o‘lchash kerak.

7.9 Armaturaning taranglik kuchlanishi kattaligini nazorat qilish ГОСТ 22362 bo‘yicha amalga oshiriladi.

7.10 Betonning himoya qatlami qalinligi va armaturaning joylashuvi ГОСТ 22904 bo‘yicha nazorat qilinishi kerak.

7.11 Tabiiy radionuklidlarining (A_{sam}) o‘ziga xos samarali faolligi to‘ldiruvchilar va bog‘lovchilarning solishtirma samarali faolligi qiymati ГОСТ 30108 ga muvofiq xom ashyo materiallari uchun sanitariya-epidemiologik xulosa bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

7.12 Armatura prokatining gamma nurlanishining ekvivalent dozasi maksimal quvvatini nazorat qilish [6] talablariga muvofiq armatura prokatining ma’lumotlari bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

7.13 Barcha o‘lchash va nazorat vositalari belgilangan tartibda tekshirilgan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak

8 Transportda tashish va saqlash

8.1 Plitalarni ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq markalar bo‘yicha saralangan shtabellarda yuqoriga qarab tashish kerak.

8.2 Plitalarni tashish temir yo‘l yoki avtomobil transportida amalga oshirilishi mumkin.

8.2.1 Tashishda shtabeldagi plitalar soni ko‘pi bilan:

- 7 ta plita - temir yo‘l transportida;
- 3 ta plita - avtomobil transportida.

8.3 Temir yo‘lda tashishda plitalarni yuklash va mahkamlash belgilangan tartibda tasdiqlangan temir yo‘l platformalariga yuklash sxemasiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

8.4 Avtomobil transportida plitalarni tashish ushbu transport turida amal qiladigan yuklarni tashish qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH MARKAZI "SERTIFIKAT" MCHJ

8.5 Saqlashda taxlamdagi plitalar soni 10 donadan oshmasligi kerak.

8.6 Plitalarni tashish va saqlashda yog‘och tagliklarga va plitalar orasidagi qistirmalarga o‘rnatish kerak.

8.7 Tagliklarni zich tekislangan asosga o‘rnatish kerak.

8.8 Qistirma va qistirmalarni loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan tayanch o‘qlari bo‘yicha, plitaning butun kengligi bo‘yicha bir-birining ustiga vertikal ravishda o‘rnatish kerak.

8.9 Qistirmalarning qalinligi 40-50 mm, qistirmalarning qalinligi 20-30 mm bo‘lishi kerak.

8.10 Plitalarni ko‘tarish va siljitish ishlarini avtomatik tarzda ilib olish yoki to‘rtta tarmoqli stropka bilan 4 ta montaj-ulash skobalari orqasida amalga oshirish kerak.

8.11 6 m uzunlikdagi arqon shoxlari orasidagi burchak 90 °Cdan oshmasligi kerak.

8.12 Plitalarni tashlab tushirish va sudrab olib o‘tishga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.13 Yuklash-tushirish ishlarida plitalarni ko‘tarish va siljitish betonni chetlab o‘tishining oldini olish, plitalarni deformatsiyadan saqlash va texnik xavfsizlikni ta’minlash uchun siltashlarsiz ravon amalga oshirilishi kerak.

9 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

9.1 Plitalar foydalanishdagi asosiy vazifasiga mos kelishi kerak.

9.2 Plitalarni o‘rnatish [10], [1] ga muvofiq belgilangan tartibda tasdiqlangan transport inshooti loyihasining ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

9.2.1 Plitalarni yotqizish “o‘zidan” o‘ziyurar kranlar bilan shablon bo‘yicha rejalashtirilgan tekislovchi qatlam bo‘ylab amalga oshirilishi kerak.

9.2.2 Plitalarni asosga uzil-kesil o‘tqazishni yuk ortilgan avtomobillar yoki pnevmatik g‘ildirakli sirpang‘ichlar bilan plitalarning cho‘kishi yo‘qolguncha o‘rnatish yo‘li bilan amalga oshirish lozim.

9.2.3 Plitalar tutashgan joylardagi birikmalarni payvandlash va choklarni germetiklovchi material bilan to‘ldirish plita qoplamaga uzil-kesil o‘tkazilgandan so‘ng darhol amalga oshirilishi kerak.

9.2.4 Qishki sharoitda yig‘ma qoplamani montaj qilish asosga yotqiziladigan 3 dan 5 mm gacha fraksiyali quruq qum yoki shag‘aldan iborat tekislovchi qatlam bo‘yicha amalga oshiriladi.

9.2.5 Yig‘ma qoplamani qattiq asosga yotqizishda tekislovchi qatlamni quruq sement-qum aralashmasidan qurish kerak.

Qatlamda muz bo‘laklari bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

9.2.6 Plitalarni montaj qilish faqat 4 ta halqa uchun to‘rtta tarmoqli stropka bilan amalga oshiriladi. 6 metr uzunlikdagi ilgakka ulangan arqonlarning oraliq burchagi 90 dan oshmasligi kerak. Plitalarni tashlab tushirish va ularni sudrab olib o‘tishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9.3 Bir bosqichli qurilishda va ikki bosqichli qurilishda ikkinchi bosqichni yakunlashda plitalardan tayyorlangan yig‘ma qoplama bo‘ylab harakatlanishni faqat ulanish birikmalari payvandlanganidan va choklar germetiklovchi material bilan to‘ldirilganidan keyin ochishga ruxsat etiladi.

9.4 Plitalardan tayyorlangan yig‘ma qoplamadan foydalanishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- qatnov qismida ishqalanish materiallari (shag‘al, qum) bo‘lmasligi kerak;

- gusenitsali texnika va sirpang‘ichlarning o‘tishi taqiqlanadi, pnevmatik sirpang‘ichlar bundan mustasno;

- qishki sirpanchiqlikning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun kimyoviy (xlorli tuzlar) va friksion-kimyoviy (qum-tuz aralashmasi) usullarni qo‘llashda qor-muz qatlami erigandan so‘ng, yumshatilgan massani avtomobil yo‘llaridan tashqariga olib chiqish zarur;

STANDARTLAR INSTITUTI HUJJATI - 09.10.2025 TURON STANDART SERTIFIKAT TIZIMI

- qatnov qismini qor-muz qatlamidan tozalash uchun qor tozalash texnikasida rezina pichoqlar bo‘lishi kerak.

10 Ishlab chiqaruvchining kafolati

10.1 Ishlab chiqaruvchi iste’molchi tomondan transportda tashish, saqlash, montaj qilish va foydalanish sharoitlariga rioya qilganda plitalarning ushbu standart talablariga muvofiqligini kafolatlaydi.


10.2 Plitalarning ishonchliligi loyihalash, ishlab chiqarish, montaj qilish va foydalanishda talablar majmui bilan ta’minlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ


A ilova
(normativ)

Plitalarni yoriqqa chidamlilikka sinash sxemalari

1-sxema. Pastki hududni sinash



2-sxema. Yuqori hududni sinash



Plitalarni yoriqqa chidamliligini sinashdagi nazorat yuklamalari

Plitalar markasi	Yuborish bosqichidagi mustahkamlik		Loyiha bosqichidagi mustahkamlik	
	Pastki hudud	Yuqori hudud	Pastki hudud	Yuqori hudud
- OAYP (ПДО)m 6.2.14	3,9 t	2,4 t	4,0 t	2,5 t
- OAYP (ПДО)m 6.0,75.14	1,463 t	0,9 t	1,5 t	0,938 t
- ZYP(ПНД)mu 6.2.14-1 - ZYP(ПНД)mu 6.2.14-2 - ZYP(ПНД)u 6.2.14-1 - ZYP(ПНД)u 6.2.14-2 - ZYP(ПНД) 6.2.14-16 A400	3,2 t	2,6 t	3,9 t	3,2 t
Yoriqlar ochilishining nazorat kengligi				
	0,4 mm		0,3 mm	

1 Plitalarni bo‘shatish mustahkamligi bosqichida sinab ko‘rish issiqlik bilan ishlov berilgandan keyin kamida bir kun va ikki sutkadan kechikmay amalga oshirilishi kerak.

2 Plitalarni loyihaviy mustahkamlik bosqichida sinash faqat beton loyihaviy mustahkamlikka erishgandan so‘ng o‘tkazilishi kerak.

3 Plitalarni sinash va yoriqbardoshligini baholash tartibi ГОСТ 8829 bo‘yicha o‘tkazilishi kerak.

4 Po‘lat tayanch plitalarining tayanch uzunligi (L) (150 ± 5) mm bo‘lishi kerak.

Tayanch plitaning qalinligi 1/6 (L) dan kam bo‘lmasligi kerak.

Tayanch plitaning uzunligi sinalayotgan plitaning kengligidan kam bo‘lmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

5 Tayanch plitalarga sinalayotgan plitani o‘rnatishdan oldin plastik sement qorishmasidan iborat tekislovchi qatlam yotqizilishi kerak, uning mustahkamligi tayanchlarda yukni qabul qilish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

6 Yog‘och brusoklarning uzunligi sinalayotgan plitaning kengligidan kam bo‘lmasligi kerak.

7 Agar 4-marta kattalashtirilgan lupa orqali sinchiklab tekshirilganda tekshirilayotgan hudud yuzasida va yon tomonlarida yoriqlar aniqlanmasa, plitalar nazorat yuklamasiga nisbatan yoriqbardoshligi bo‘yicha sinovdan o‘tgan deb hisoblanadi:

- bo‘shatish mustahkamligi bosqichida sinovdan o‘tkazilganda 0,4 mm dan ortiq;
- loyihaviy mustahkamlik bosqichida sinovdan o‘tkazilganda 0,3 mm dan ortiq.

8 1 va 2 sxemalardagi o‘lchamlar mm da ko‘rsatilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

B ilova

(ma’lumot uchun)

Konstruktorlik hujjatlari haqida ma’lumot

1 Konstruktorlik hujjatlari 04 – 00 – 2018	Temir-beton yo‘l plitalari Ishchi chizmalar
2 Konstruktorlik hujjatlari H 4613 ZTBK (KJH) (Zo‘riqtirilgan temir beton konstruksiyalar)	Yig‘ma tarkibning ishchi chizmalarini ishlab chiqish A400 sinfidagi oldindan zo‘riqtirilgan armatura sterjenlarini qo‘llagan holda avtomobil yo‘llarining yo‘l qoplamalarini qoplash qurilmasi uchun 6000x2000x140 o‘lchamli oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton plita

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografiya

[1] SHNQ 2.05.02-23 Avtomobil yo‘llari. Loyihalash talablari

[2] SHNQ 2.01.01-22 Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar

[3] SHNQ 5.01.23-08 Yig‘ma va monolit beton, temir-beton buyumlar va konstruksiyalar betonlarini tayyorlash uchun sement sarfining namunaviy me’yorlari

[4] SHNQ 2.03.11-24 Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish

[5] SanQvaN 0193-06 Radiatsiya xavfsizligi me’yorlari va radiatsiya xavfsizligini ta’minlovchi asosiy sanitariya qoidalari

[6] UzTR.319-004:2015 “Metallurgiya mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament”

[7] SanQvaN 0325-16 Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin darajalarining sanitariya me’yorlari

[8] SanQvaN 0326-16 Ish joylarida mahalliy va umumiy tebranishning sanitariya normalari

[9] SHNQ 3.01.02-23 Qurilishda xavfsizlik texnikasi

[10] SanQvaN 0324-2016 Ishlab chiqarish binolarida mikroiqlimning sanitar-gigiyenik normalari

[11] SHNQ 2.04.05-22 Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash

[12] SHNQ 2.09.02-23 Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari

[13] SanQvaN 0300-11 O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash, va utilizatsiya qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va normalari

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografik ma’lumotlar

MUT 584621
SMT 93.080.20

Muhim so‘zlar: temir-beton yo‘l plitalari, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, qabul qilish qoidalari, nazorat usullari, o‘rnatish va foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar.

STANDARTLAR INSTITUTI #60IB47UIME - 09.10.2025 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ